



UDK: 1.101.4.45.78

*Zuxriddin G'ULOMOV,  
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi*

*Farg'ona davlat universiteti dotsenti B.Mirzaraximov taqrizi asosida*

## YOLG'ON AXBOROTLARNI TEKSHIRISH VA TAHLIL QILISHNING USUL VA VOSITALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlar orasida yolg'on axborotlarni aniqlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan usul va vositalar keng qamrovda ko'rib chiqilgan. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng tarqalayotgan noto'g'ri ma'lumotlar yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, ijtimoiy barqarorlikka putur yetkazishi mumkinligi ta'kidlanadi. Shu bois, yosh avlodni axborot oqimida mustaqil fikrlashga, tanqidiy yondashishga, faktlarni tekshirib tahlil qilishga o'rgatish zarurati dolzarb masala sifatida talqin qilinadi. Maqolada yolg'on axborotlarning jamiyatga ta'siri, ularning psixologik va ijtimoiy jihatdan qanday xavf tug'dirishi ochib beriladi. Ayniqsa, yoshlar axborot iste'molchisiga aylangan hozirgi davrda media savodxonlik, raqamli gigiyena, axborot madaniyati kabi omillar yoshlarni himoya qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi qayd etiladi. Shuningdek, bu borada ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va ota-onalarning hamkorlikdagi faoliyati zarurligi asoslab beriladi. Mazkur tadqiqot axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantirishda nazariy va amaliy yondashuvlarni ilgari suradi.

**Kalit so'zlar:** Xabar, axborot, axborotlashgan jamiyat, yolg'on axborot, dezinformatsiya, axborot siyosati, "feyk xabarlar", globallashuv, integratsiyalashuv.

## МЕТОДЫ И СРЕДСТВА ПРОВЕРКИ И АНАЛИЗА ЛОЖНОЙ ИНФОРМАЦИИ

Аннотация

В данной статье всесторонне рассматриваются методы и средства, способствующие формированию у молодежи навыков выявления и анализа ложной информации. Отмечается, что широкое распространение недостоверной информации через интернет и социальные сети может оказывать негативное влияние на сознание молодежи и подрывать социальную стабильность. В связи с этим подчеркивается актуальность обучения молодого поколения критическому мышлению, способности проверять и анализировать факты в условиях информационного потока. В статье раскрывается влияние ложной информации на общество, а также возможные психологические и социальные угрозы. Особое внимание уделяется значению медиаграмотности, цифровой гигиены и информационной культуры как средств защиты молодежи в условиях, когда она становится активным потребителем информации. Также обоснована необходимость взаимодействия образовательных учреждений, средств массовой информации и родителей в этом процессе. Настоящее исследование предлагает теоретические и практические подходы к формированию иммунитета против информационных атак.

**Ключевые слова:** Сообщение, информация, информационное общество, ложная информация, дезинформация, информационная политика, «фейковые новости», глобализация, интеграция.

## METHODS AND TOOLS FOR VERIFYING AND ANALYZING FALSE INFORMATION

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of methods and tools that help develop the skills of identifying and analyzing false information among youth. It emphasizes that the widespread dissemination of misinformation through the Internet and social media can negatively affect the minds of young people and threaten social stability. Therefore, the need to teach the younger generation to think independently, approach information critically, and verify and analyze facts is highlighted as a pressing issue. The article explores the impact of false information on society, detailing its potential psychological and social risks. In today's world, where youth are becoming major consumers of information, media literacy, digital hygiene, and information culture are identified as crucial tools for protection. The importance of cooperation among educational institutions, mass media, and parents in this regard is also substantiated. This study offers both theoretical and practical approaches to building immunity against informational threats.

**Key words:** Message, information, information society, false information, disinformation, information policy, "fake news", globalization, integration.

**Kirish.** Jahonda global axborotlashuv insoniyat taraqqiyotining bosh omiliga aylanib, ijtimoiy hayotda sivilizatsiyaning uchinchi to'ldiruvchi sifatida qaror topishi, axborot jarayonlari dinamikasi (o'zgaruvchanligi) bilan bog'liq vazifalarga alohida e'tibor qaratish zaruratini paydo qilmoqda. Shu bilan birga, yolg'on, uydirma, soxta ma'lumotlardan iborat axborotlar "feyk xabarlar"ning ijtimoiy ta'siri va jamoatchilik fikrini boshqarish imkoniyatlari ortib bormoqda. Shuning uchun ham, global axborot oqimi mislsiz kuchaygan hozirgi sharoitda axborotlar ichida uydirma,

yolg'on axborotlarning mazmun-mohiyati, ularni qo'llanishdan ko'zlangan maqsadi, auditoriyaga ko'rsatayotgan ta'siri, jamoatchilik fikrini boshqarishdagi roliga doir ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, dizinformatsion zi'ddiyatlar sharoitida, axboriy kurashlar maydonida yolg'on axborotlarni tekshirish usullarini ijtimoiy-falsafiy asoslarini tadqiq etish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni tekshirish

va tadqiq etish masalalari ijtimoiy-siyosiy hayotdagi muhim jarayon sifatida ko'plab olimlar, tadqiqotchilarning diqqat-e'tiborini jalb etgan masaladir. Ayniqsa, ushbu jarayonda davlatning axborot siyosati, uning o'ziga xos xususiyatlari, ommaviy axborot vositalarining o'rni va roliga bag'ishlangan bir qator asarlar yaratilgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida yaratilgan asarlarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin.

Masalaning e'tiborli jihati shundaki, dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni tekshirish metodologiyasi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy tadqiqotlar obyektiga aylana boshladi. Shu bois, axborot siyosatining aynan globallashuv ta'sirida shakllanishi ham nisbatan yangi mavzu hisoblanadi. Taniqli G'arb olimlaridan E.Giddens, E.Toftler, S.Xantington, F.Fukuyama, D.Xolms, P.Ximanen va M.Kastels kabi mutaxassislar o'z izlanishlarida axborotlashgan jamiyatning vujudga kelishi, bunday jamiyatlarning rivojlanish tendensiyalarini keng yoritib berganlar. G'arb olimlarining ushbu ilmiy muammolarga bag'ishlangan asarlarini ikkinchi guruh adabiyotlar sifatida e'tirof etish mumkin.

Bugungi kunda MDH hamda boshqa xorijiy mamlakatlarda dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni tekshirish metodologiyasining mazmun mohiyatini ifodalovchi asarlari bilan tanilgan olimlarning izlanishlarini kiritish mumkin. Xususan, Y.Nisnevich, A.Devyatov, I.Ilin, A.Ursul, X.Malik, P.Morozov, E.Brandman, YUXabermas, A.Manoylo, M.Abramson, D.Garson, M.Uoters, I.Jerald kabi olimlar o'z asarlarida globallashuv jarayonining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'siri, global taraqqiyot va umuminsoniy muammolar, globallashuv sharoitida axborot va hokimiyatning o'zaro munosabati masalalari, davlatning axborot siyosati hamda uning strategik jihatlari masalalariga e'tibor qaratganlar.

**Tahlillar va natijalar.** The International Fact-Checking Network qanday vazifalarni bajaradi?

Ushbu tashkilotlarining vazifalari quyidagilardan iborat[11]: butun dunyoda faktlarni tekshirish bo'yicha tendensiyalar, formatlar monitoringi va siyosatini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi, muntazam ravishda ushbu mavzu bo'yicha maqolalar chop etadi; fakt-checkerlar bazaviy standartlarini, tamoyillari majmuasini va fakt-chekingni rivojlantirishga mo'ljallangan loyihalarini ilgari suradi; ushbu mavzu bo'yicha innovatsiyalar va dasturlar uchun yillik stipen-diylar, grantlar ajratadi; • jurnalistlarni har yilgi konferensiyalarga chaqiradi (Global Fact) va xalqaro miqyosda fakt – cheking bo'yicha umumiy harakatlarga ko'maklashadi; fakt-cheking mavzulari bo'yicha onlayn ta'limni amalga oshiradi. Bir so'z bilan aytganda, ushbu hamjamiyatlar va onlayn resurslar kontentning haqqoniyligiga befarq bo'lmaganlar o'rtasida jahon networkingini yaratish va jahon media muhitida axborotni noto'g'ri talqin qilishning turli shakllarini bartaraf etish maqsadini ko'zlaydi.

Shuningdek, bugungi kunda faktlar tekshirish uchun "Washington Post" gazetasi tahririyati tomonidan yaratilgan Storyful.com, FactCheck.org, PolitiFact.com yoki The Fact Checker kabi ixtisoslashgan loyihalar va servislari faoliyat yuritadi. Afsuski, ular asosan ingliz tilida so'zlashuvchi omma uchun mo'ljallangan. Biroq so'nggi yillarda ulardanda universalroq instrumentlar yaratilganini ham ta'kidlash zarur. Mediakritika.by sayti "O'quvchiga tarmoqdagi kontentning ishonchligini tekshirishda yordam beradigan 5 ta yangi dastur va ilova" maqolasida bir qancha foydali servislarni tavsiya etgan. Bular: Trooclick, Truth Goggles, Lazy Truth, Skeptive, Genius[8].

Manbalar va kontentni tekshirish bo'yicha WAN-IFRA ning tavsiyalari:

1. Ijtimoiy tarmoqda foydalanuvchining sahifasi qachon ochilganini tekshirish. Ba'zan yangi akkauntlar

dezinformatsiya tarqatish va mistifikatsiya uchun yaratiladi. Twitterning foydali funksiyalaridan biri shundaki, u yangi dizaynli profilning qachon ochilganini ko'rsatib turadi.

2. Foydalanuvchining faolligini o'rganing. U kim bilan do'stlashgan, kim bilan yozishadi, profiliga kimlarni qo'shgan, nima haqida yozadi, nima haqida gapiradi? Ijtimoiy tarmoq insonning o'zaro aloqalari va ta'siri haqida ko'pgina ma'lumotlarni beradi.

3. Foydalanuvchining boshqa ijtimoiy tarmoqdagi akkauntlarini izlang. Izlagan odamning ismi internetning yana qaysi sahifasida uchraydi? Uni qidirishda Spokeo, Pipl.comdan foydalaning. WebMii va LinkedIn – telefon raqami, manzil va boshqa ma'lumotlarni olishga urinib ko'ring.

4. Yangilikni yuklab olgan, nashr qilgan inson bilan bog'laning. Bu tekshirish uchun juda muhim. Qo'shimcha ma'lumotlar oling va materialga qanday talablar qo'yilganini biling, ma'lumotdan foydalanish uchun ruxsat olish mumkin yoki mumkin emasligini tekshirib ko'ring.

5. Foydalanuvchining siz bilganlar bilan gaplashayotganini solishtiring. Sizni qiziqtirayotgan voqealarga aloqasi bo'lgan boshqa akkauntlarni izlang. Bundan tashqari, foydalanuvchidan qo'shimcha fotosurat, video bor yoki yo'qligini so'rang.

6. Qaerda joylashgani haqidagi ma'lumotlarni solishtiring. Twitter, Facebook va boshqa platformalar foydalanuvchilarga o'z postlarini joy bilan bog'lash imkonini beradi. Bu odamning haqiqatdan ham gapirgan joyida bo'lganini aniqlashga yordam beruvchi belgidir.

7. Tasvir bo'yicha qayta qidiruvdan foydalaning. Qayd etilishicha, yaqinda olingan foto ko'pincha eski surat bo'lib ko'rinishi mumkin. Buni tekshirish uchun Google Reverse Image Search yoki TinEyeddan foydalaning. Internetda ushbu tasvir paydo bo'lganini ko'rasiz. Mazkur funksiya mini-atiyura video uchun ham ishlaydi – qidiruv xizmati bu onlaynni yana qaerda ko'rishingiz mumkinligini aytadi.

8. EXIF-fotosurat ma'lumotlarini tekshirish. Har bir raqamli tasvir metama'lumotga ega bo'lib, u siz ko'rmayotgan narsalarni ko'rsatib turadi. Bir qator foydali ma'lumotlardan tashqari, EXIF suratga olgan kameraning turini aniqlashga yordam beradi. Ba'zan geografik ma'lumotlar yoziladi.

Manba – bu birinchi fikr bildirgan inson yoki harakat. Dastlabki manba, faktning "alfa va omega"si. Shuningdek, voqeada ishtirok etgan (guvoh) kishi yoki unga yaqin shaxs ham manba bo'lishi mumkin. Agar manba jonsiz, qayd etish vositasi bo'lsa, nur ustiga a'lo nur. Unda manba shaxsiy baho, taxminlardan holi bo'ladi va mental xatolardan holilik kafolatlanadi. Bular har qanday qurilma – oynadagi termometrdan tortib mashinadagi videoqayd etuvchi uskunagacha bo'lishi mumkin. Biroq bu erda faktchecker professional nuqtai nazardan narsa va hodisalarga: jihozning ishonchligini tekshirish va tashqi aralashuv bo'lganini aniqlashga shubha bilan qarashi ham kerak: Ma'lumotlarni turli manbalardan tekshirish, ekspertlar va odamlarning mavzuga doir fikrlarini bilish hech qachon ortiqchalik qilmaydi. Ammo sharhdan manbani ajrata olish kerak. Agar kimdir "o'qimaganman, lekin muhokama qilaman" formulasi bo'yicha "aql"li ko'rinishda mulohaza yuritadigan bo'lsa, u manba bo'lolmaydi. Bunday fikrlar materialni boyitishi mumkinligiga qaramay, eng asosiysi, ularni bezaklar ekanligini unutmaslik zarur[9]. Ular manbalarning aniq dalili va aniq faktlarning skeletini o'zgartira olmaydi.

2. Qarama-qarshi tomonni surishtirish: antiqan olib qaraganda birinchi qoida ikkinchisini keltirib chiqadi: qancha manbani so'rab-surishtirmang, ular bitta pozitsiyada turib olsa, materialingiz xolisligini yo'qotadi. Agar qandaydir yopiq sektaning yuzlab tarafdorlari bilan muloqot qilsangiz, unda yakdillikni ko'rasiz. Bu erda son va sifat xolislikka xizmat qilmaydi.

Har qanday vaziyat turli tomonlardan o'rganiladi. Voqeaga jalb qi-lingan manfaatdor tomonlar va ishtirokchilar bilan muloqot qilishga urinish zarur. Ko'pincha jurnalistlar achinarli holat va sharmandalikdan qutqaradigan eski prinsipni nazarga ilmaydilar. Rolling Stone jurnali bilan bog'liq holat bunga yorqin misol bo'ladi. Ushbu jurnal Virjiniya universiteti kampusida talaba qizning zo'rlangani haqidagi shov-shuvli materialni o'chirib tashlashga majbur bo'lgan. Mazkur voqea yuzasidan qayta olib borilgan tergov ishlarining ko'rsatishicha, jurnalist ayol boshqa manbalar orqali faktlarni tekshirmagan. Jumladan, nafaqat qarshi tomon – ayblanuvchi bilan, balki go'yoki ko'ngilsiz hodisada talaba qizga yordam bergan do'stlari bilan ham suhbatlashib ko'rmagan. Auditoriya e'tibori nuqtai nazaridan bu materialga ko'plab munosa-batlar bildirilgan: ushbu videoni deyarli 3 mln odam ko'rgan[7]. Albatta, bu jurnal tomonidan ataylab qilinmagani aniq bo'lsada, ammo shavqatsiz kurash davrida bu voqea omma e'tiborini tortishda nashriyot uchun ko'ngilsiz holat bo'lgani tayin.

3. “Feyk”larni aniqlashga o'rganish: Navbatdagi zarur ko'nikma – “feyk”larni aniqlashga o'rganishdir. Bu bir qarashda oson ish emas. “Feyk”ni faqat yasama, deb tushunishdan saqlanish kerak. Bu balki beparvolik tufayli matbaa va texnik xatolar ham bo'lishi mumkin. Shu bois tilga olingan odamlarning ismi, kasbi va unvon yozishda tekshirish, muddat, nom, manzillarni solishtirish juda muhim. “Feyk” aniq bir maqsadga qaratilgan harakat ham bo'lishi va ommaning ko'ngilochar tomoshasiga xizmat qilishi mumkin.

4. Faktlarning aniqligi shov-shuvli xabardan hammuhimroq ekanini yodda tutish: Hissiyotlar – faktchekerning xavfli dushmani. Ayrim medialar mamnuniyat bilan faktoidlar chiqarishadi, ular auditoriya orasida mashhur. Hissiyotlar bilan birga beparvolik, jahonni olamshumul yangilik bilan tezroq va birinchilardan bo'lib boxabar etkazish turadi. Professionalarning maslahat berishlaricha, tezkor va tekshirilmagan xabarlarini ularning ishonarli emasligini ta'kidlagan holda ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirish lozim. Bu esa ma'lumotni aniqlashtirish va tekshirish imkonini beradi. Ko'pincha odamlar hali vaziyatni bilmay turib, jazavaga tushadilar. Yaqinda Shvetsiyaning mudofaa vazirligi OAVda chop etilgan ma'lumotlarga, aniq ko'rinmagan fotosuratga tayangan ravishda mamlakat qirg'og'i yaqinida Rossiyaning suvosti kemasini izlagan edi. Oqibatda hech narcha

topilmagan va vazirlik sarf-harajatlar uchun soliq to'lovchilardan uzr so'rashga majbur bo'lgandi. Lekin shvedlar uchun suvosti kemasi mavzusi o'z-o'zidan dolzarb ahamiyat kasb etgani yo'q. O'tgan asrning 80-yillarida Shvetsiyaning harbiy dengiz bazasi yaqinida haqiqatdan ham SHo'rolar suvosti kemasi halokatga uchragan edi. O'shandan beri Rossiya suvosti kemasi mavzusiga qo'rqinch bilan qaraladi.

5. Ijtimoiy tarmoqlardan ehtiyotkorona foydalanish: Aslida har bir faktning kamida 2-3 ta manbadan tekshirish lozim. Biroq aynan ijtimoiy tarmoqlar bir vaqtning o'zida ishni ham osonlashtiradi va ham murakkablashtiradi. Faktcheking jarayonida ma'lumot va manbani ajratish zarur. Aniqrog'i unisini ham, bunisini ham tekshirish kerak. Har doim Internet va ijtimoiy tarmoqlar sharofati bilan insonning faoliyati haqida ma'lumot olish, qarindoshlar va do'stlar bilan aloqa o'rnatish, hamkasblar va tanishlar o'rtasida so'roq o'tkazish mumkin.

Toffler o'zining “Uchinchi to'lqin” kitobida bashorat qilganidek, endilikda axborot postindustrial jami-yatning bitmas-tuganmas xom ashyosiga aylandi. Axborot qadriyatga aylanadigan zamonda bosma va elektron OAV jamiyatdagi mavjud bo'lgan butun axborot yukini ko'tara olmay qoladi. Shu tufayli, bunday OAV o'z o'rnini “uchinchi to'lqin” tamaddunida maksimal darajadagi xilma-xillikni ta'minlay oladigan va hatto shaxsiy so'rovlarga ham javob bera oladigan interaktiv va ommaviy bo'lmagan vositalarga bo'shatishga majbur bo'ladi[12], deydi futurolog o'z bashoratida. Bosma nashrlarning bugungi kundagi ahvoli, TV o'z auditoriyasini saqlab qolish uchun tok-shou va realiti shoularga zo'r berayotgani, radioga bo'lgan ehtiyojning keskin tushib ketishi va o'rnini podkastlarga deyarli bo'shatib bergani Tofflerning bashorati asosli ekanligini ko'rsatmoqda.

**Xulosa.** Ijtimoiy tarmoqlar mutaxassislari ogohlantirganidek, total axborot appokaliptis (oxirat)ning yaqinlashishi haqiqat va yolg'on o'rtasidagi chegaralarning yo'qolishida ko'rina boshlaydi. Kunning asosiy qismini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazadigan insonlarda bora-bora zerikarli reallikka apatiya shakllanib, haqiqatni yolg'ondan farqlash ehtiyoji yo'qolib boradi. Masalan, Facebook, Twitter va Googleda klik, layk, repostlar ta'minlab beradigan reklamali o'tishlar va shu orqali pul topish muhim bo'lishi mumkin. Axborot sifati esa ikkinchi darajali masala aylandi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ташанов А. Бузгунчилик фаолияти ва бузгунчи ғояларнинг хусусиятлари//. - Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари 2017. 2-сон Б. 110.
2. Жабборова С. Пинҳона тажовуз.//. – Тафаккур-2013. 3-сон Б. 116.
3. Манойло А.В., Петренко А.И., Фролов Д.Б. Государственная информационная политика в условиях информационно-психологической войны. - М.: Горячая линия–Телеком, 2003. – С. 67-69.
4. Почепцов Г.Г. Психологические войны. - М.: Рефл-бук, 2000. – С. 204.
5. Киви Бёрд. Гигабайты власти. Информационные технологии между свободой и тоталитаризмом. - М.: Бестселлер, 2004. – С. 66.
6. Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари: иктисодий, ижтимоий ва маънавий жиҳатлари. –Тошкент.:Маънавият, 2006. – Б. 89.
7. <https://lex.uz/docs/1106870>
8. Соколов А.В. Информационное общество в виртуальной и социальной реальности.–Санкт Петербург.Алтея, 2011. – С.335-336.
9. Лашенов А.Н. Аналитика постиндустриального общества: от кибернетических к социологическим теориям. //Журнал социологии и социальной антропологии.М.: 2006. Том IX. № 4. – С.5.
10. Соколов А.В. Информационное общество в виртуальной и социальной реальности. – Санкт Петербург: Алтея, 2011. – С.170-173.
11. <https://www.poynter.org/channels/fact-checking>
12. Тоффлер Э. Демассификация средств массовой информации. Третья волна. (Глава 13) – Москва: АСТ, 2004. – 781 с.